

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA GULINOZ FATILLOYEVNA**

**MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI  
DIVERSIFIKATSİYALASH ASOSIDA İSTE'MOLCHILARGA XİZMAT  
KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Economical Sciences**

**Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna**

Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash  
asosida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish..... 3

**Рузиева Гулиноз Фатиллоевна**

Повышение эффективности обслуживания потребителей на основе  
диверсификации национальной ремесленной продукции..... 29

**Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna**

Improving the efficiency of service to consumers based on the  
diversification of national handicraft products..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati..... 57**

Список опубликованных работ

List of published works

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA GULINOZ FATILLOYEVNA**

**MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI  
DIVERSIFIKATSİYALASH ASOSIDA İSTE'MOLCHILARGA XİZMAT  
KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4676 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirov Azizjon Anvarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xidirova Gavhar Rustamovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand**  
davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi 2025 yil "23" avgust kuni soat 14<sup>00</sup> da Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998-65) 221-29-14; faks: (998-65) 221-27-07; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (704-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998-65) 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "13" avgust kuni tarqatildi.

(2025 yil "22" iyul dagi № 26 raqamli reyestr bayonnomasi).

**O.X. Xamidov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

**D.Sh. Yavmutov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

**B.N. Navruz-Zoda**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy  
seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartlaridan biriga aylanib bormoqda. Xizmatlar sohasining barqaror rivojlanayotgan sohalaridan biri bu turizm sohasi bo'lib, xizmatlar sohasining 13 foizini turizm xizmatlari tashkil etadi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil dunyoda 1,3 milliarddan ortiq xalqaro turistik sayohatlar qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar turizmga yondosh sohalarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, 2024 yilda o'tgan davrga mos ravishda milliy hunarmandchilik mahsulotlari sotuвлar hajmining 27% ga ortgani, ushbu sohada diversifikatsiya qilish orqali xizmatlar sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda<sup>1</sup>. Bu esa mamlakatimizda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali ishlab chiqarish va sotuвлar hajmini raqamli texnologiyalar asosida kengaytirish hamda unga mos infratuzilmani tashkil etish dolzarbligidan dalolat beradi.

Jahonda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash, rivojlantirish xususiyatlari va zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlarni o'rganish, sohani innovatsion rivojlanishini ta'minlash va uning investitsion jozibadorligini oshirish hamda xizmatlar bozorida iste'molchilar sa'y-harakatlariga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar qatorida milliy hunarmandchilik mahsulotlari bozorining tashkiliy-iqtisodiy sohalarini aniqlash, ichki va tashqi turistlar tashrif buyuradigan joylarning hunarmandchilik mahsulotlari darajalarini baholash, milliy hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi vosita sifatida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, mazkur yo'nalishda hududlar imkoniyatlarini kengaytirish, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash va sifatini jahon standartlariga muvofiqlashtirish kabi keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Shuni ta'kidlash lozimki, xizmatlar sohasi iqtisodiyotning nisbatan tez rivojlanayotgan sektorlaridan biri bo'lib, shu hisobidan mamlakat YaIMning shakllanishi va aholi daromadiga ahamiyatli hissa qo'shadi. Xalqaro mehnat tashkilotining bahosiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga qo'shimcha o'sishi kambag'allik darajasini 1,5 foizga kamaytirish imkonini beradi"<sup>2</sup>. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini zamonaviy talablar asosida barqaror rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirish, xizmatlar faoliyatini tashkil qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko'lagini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 2-dekabrdagi PF-4861-sun «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-sun «Hunarmand uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sun «O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun

<sup>1</sup> <https://www.unwto.org> – Birlashgan millatlar Butunjahon turizm tashkiloti sayti

<sup>2</sup> <https://www.ilo.org> Xalqaro mehnat tashkiloti veb sayti

qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son «Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son «O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Tapaqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son «Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Mamlakatlar milliy iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o‘rnini baholash, uni tashkil etish, jumladan aholiga xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish, xizmatlar sohasini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning ta’sir doiralarini baholash, ushbu sohani texnologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar J.Jafari, S.R.Barros, J.Soulard, J. S. Zimmerhackel, B. Walheer, A. Mathieson, M.Veber, V.Zombart<sup>3</sup> kabi uzoq xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Yaqin xorij mamlakatlarida xizmatlar sohasini rivojlanirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari, mamlakatda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda ilg‘or xorij amaliyotidan foydalanish istiqbollari, xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etishning tabiiy-geografik omillar bilan bog‘liqligi, hududlardagi mavjud xizmatlar sohasini rivojlanirish salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari, ushbu sohaning global raqobatbardoshligi ko‘satkichini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari E.A.Kotlyarov, I.I.Pirojnik, T.V.Abramova, A.E.Boyko, M.K.Kalashova, S.S.Nikolayev, E.S.Bogomolova, L.A.Galichieva, D.N.Markov<sup>4</sup> kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq

<sup>3</sup> Jafari J. Editor’s Page // Annals of Tourism Research. Special Number. October/December, 1977. p. 8.; Barros S.R. Evaluating the efficiency of a small hotel chain with a Malmquist productivity index / S.R. Barros // International Journal of Tourism Research. 2005. №7(3). P.173-184.; Joelle Soulard, Whitney Knollenberg, B. Bynum Boley, Richard R. Perdue, Nancy Gard Mc Gehee. Social capital and destination strategic planning // International Journal of Tourism Management. Volume 69, December 2018, Pages 189-200 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0261517718301225>; Johanna S. Zimmerhackel, Abbie A. Rogers, Mark G. Meekan, Khadeejah Ali, David J. Pannell, Marit E. Kragt. How shark conservation in the Maldives affects demand for dive tourism // International Journal of Tourism Management. Volume 69, December 2018, Pages 263-271. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0261517718301201>; Barnabe Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China // International Journal of Tourism Management. (Pages 1-604 (December 2018) pp. 1-11.; Mathieson A., Wall G. Tourizm Economic, Physical and Sosial Impact Longmont Scientific and Technical, Singapore, 1989. 137 p. Veber M. Izbrannoe. Obraz obshchestva: translated from German. – Moscow: Yurist, 1994. P. 704. Zombart V. Burjua. Yevrei i xozyastvennaya jizn: translated from German. – Moscow: Ayris-press, 2004. – P.624.

<sup>4</sup> Котляров Е. А. География отдыха и туризма. Формирование и развитие территориальных рекреационных

etilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.N.Navro‘z-zoda, E.V.Golisheva, D.Sh.Yavmutov, N.S.Ibragimov, T.Doschanov, B.Sh.Safarov, T.T.Tashmurotov, D.K.Usmanova, O.X.Xamidov, A.Karimov, Z.Sattarova, R.S.Fatxullayev, S.Boboyev, U.Rahmonov, O‘roqova D.B., Sh.L.Mamasoliyeva<sup>5</sup> kabilarning ilmiy izlanishlarida mamlakatimizda xizmatlar bozorini rivojlanishiga xos bo‘lgan xususiyatlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilarga xizmatlarni tashkil etish yo‘nalishlari, xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlarning boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, mamlakatimizda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni innovatsion usulda rivojlantirish, ushbu sohaga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sifatini va samaradorligini takomillashtirishga bag‘ishlangan nazariy-amaliy masalalar tizimlashtirilgan va kompleks holda, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili xizmatlar ko‘rsatish sohasini iste’molchilarga yo‘naltirilgan rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, jumladan, xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish, mamlakatda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarning global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichini yaxshilash kabi ustuvor maqsadlarga erishishning zamonaviy mexanizmini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbliji, iqtisodiy

---

комплексов. – М.: Мысль, 1978. – 238 с.; Пирожник И.И. Основы географии туризма и экскурсионного обслуживания. – Минск «Университетское», 1985. – 160 с.; Абрамова Т.В. Основы и механизм управления развитием курортно-туристского комплекса России Дис. канд.экон.наук. – Москва, 2004. – 174 с.; Бойко А.Е. Формирование кластеров как инструмент повышения конкурентоспособности туристских услуг: Автореф. дис. канд. экон. наук. – Новосибирск: 2011. – 24 с.; Калашова М.К. Активизация развития туристско-рекреационного комплекса: факторы и регуляторы (на материалах Республики Адыгея) Дис. канд. экон. наук. – Майкоп, 2009. – 173 с.; Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства. автореферат дисс. канд. экон. наук. – Санкт-Петербург. – 2000. – 24 с.; Богомолова Е.С. Теоретико-методологические основы управления развитием туристско-рекреационного комплекса региона. Дис. д-ра. экон. наук. – Майкоп, 2008. – 346 с.; Галачиева Л.А. Формирование и развитие территориально-рекреационного комплекса Кабардино-Балкарии: Дис. канд. геогр. наук. – Ставрополь, 2006. – 160 с; Марков Д.Н. Экономическая оценка туристской деятельности на региональном уровне: атакеф. дис... канд. экон. наук: 08.00.05 / Д.Н. Марков. Владивосток, 2013. 24 с.

<sup>5</sup> Б.Н.Навруз-зода Бухара – город на Великом Шелковом Пути один из центров всемирного туризма. Сборник научных статей. Страницы 149-153., Голышева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях. Дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 2012. – 156 с.; Shoimardonkulovich Y. D. et al. The role of entrepreneurship in achieving economic stability //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 07. – С. 50-54. Ibragimov N. S. Relationship of uzbekistan to independent organized travels //Economics and Innovative Technologies. – 2018. – Т. 2018. – №. 1. – С. 71.; Досчанов Т. Туризм соҳасини бошқаришнинг инновацион моделини такомиллаштириш масалалари. Эффективное использование социально-экономического потенциала и привлечение новых источников экономического роста. ИПМИ. Форум экономистов – VI. Ташкент – 2015. с. 259-265.; Safarov B.SH. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. – Т.: Fan va texnologiya, 2016. – 184 б.; Tashmuratov T.T. Xalqaro turizm. – Т.: Turon – Iqbol, 2007. – 320 б.; Усманова Д.К. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития. Дисс. ... канд. экон. наук. – Самарканда: СамИСИ, 2009. – 157 с.; Хамидов О.Х. Выбор Конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана. . Дисс. ... канд. экон. наук. – Самарканда: СамИСИ, 2006. – 155 с. Z.Sattarova O‘zbekiston madaniy meroslarining turizimni rivojlantirishdagi o‘rn. - «Ta’lim, fan va innovatsiya» ma’naviy-marifiy, ilmiy-uslubiy journali.Toshkent, 2015.-50-53 б., R.S.Fatxullayev XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning 80 yillarda O‘zbekiston amaliy-bezak san’atidagi tasviriy mavzular. San’atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasiga talabgor dissertatsiya. - Toshkent. 2000. - 165 б. San’atshunoslik ilmiy -tadqiqot instituti kutubxonasi. - IA(M)F-27, № 1473., Boboyev. S. (2015) «Hunarmandchilik va uning rivojlanish tarixi.» Samarcand Davlat Universiteti Nashriyoti – Samarcand., Rahmonov. U. (2018) «Hunarmandchilikning iqtisodiy asoslari.» Xorazm Davlat Universiteti Nashriyoti. Xiva., O‘roqova D. B. Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri (O ‘zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida) //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Т. 1. – №. 4., Sh. L Mamasoliyeva Xalq hunarmandchiligi o‘quv qo‘llanma S-2021-. 220 б.

adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarni ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy hunarmandchilikning rivojlanish bosqichlari va institutsional asoslarini tahlil qilish;

mamlakatimizda hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalashning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq qilish;

milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va diversifikatsiyalashning ilg‘or xorij tajribasini qiyosiy taqqoslash;

O‘zbekistonda aholiga xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalarini baholash;

mamlakatimizda milliy hunarmandchilik mahsulotlari eksportining iqtisodiyotga ta’sirini hududlar kesimida umumiy baholash;

milliy hunarmandchilik mahsulotlari samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish;

milliy hunarmandchilikni diversifikatsiyalash orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqish;

o‘rta muddatli istiqbolda mamlakatda xizmatlar eksporti hajmini oshirishda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash orqali xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbollarini baholash;

mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha “Do it yourself!( Buni o‘zing bajar)” platformasi asosida milliy hunarmandlar faoliyati samaradorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mamlakatda faoliyat yuritayotgan milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik va SWOT tahlil va prognozlashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

«milliy hunarmandchilik» iqtisodiy kategoriyasi ta’rifi milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va diversifikatsiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish orqali takomillashtirilgan;

milliy hunarmandchilik mahsulotlari diversifikatsiyalash jarayonlarini joriy etishga moyilligi darajasiga ko‘ra past ( $PL \approx 0-0,34$ ), o‘rta ( $PL_m \approx 0,35-0,64$ ) va yuqori ( $PL_h \approx 0,65-1,0$ ) darajali guruhlarga tabaqlashtirish hamda har bir tegishli guruh bo‘yicha o‘zgarishlarni baholash ko‘rsatkichlarini kiritish asosida xizmatlar ko‘rsatish sohasi

samaradorligini baholashni takomillashtirish taklifi asoslangan;

mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha “Do it yourself! (Buni o‘zing bajar!)” platformasi asosida milliy hunarmandlar faoliyati samaradorligini oshirish strategiyalari ishlab chiqilgan;

milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikasiyalash orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning 2028 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalarini** quyidagilardan iborat:

milliy hunarmandchilikning rivojlanish bosqichlari va institutsional asoslari tatqiq etilgan;

mamlakatimizda hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikasiyalashning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari tadqiq etilgan;

milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va diversifikasiyalashning ilg‘or xorij tajribasi qiyosiy taqqoslangan;

O‘zbekistonda aholiga xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari hamda milliy hunarmandchilik mahsulotlari eksportining iqtisodiyotga ta’siri hududlar kesimida umumiy baholangan;

milliy hunarmandchilik mahsulotlari samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqilgan;

milliy hunarmandchilikni diversifikasiyalash orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqilgan;

o‘rta muddatli istiqbolda mamlakatda xizmatlar eksporti hajmini oshirishda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikasiyalash orqali xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbollari baholangan;

mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha “Do it yourself!(Buni o‘zing bajar)” platformasi asosida milliy hunarmandlar faoliyati samaradorligini oshirish strategiyalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Hunarmand uyushmasi, BMTning Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO), Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarining maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyatga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o‘rnini yaxshilash, milliy hunarmandchilik mahsulotlari sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining samaradorligini oshirish va ularni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi

“Hunarmand” uyushmasi, Respublika viloyatlari hokimliklari, Davlat statistika qo‘mitasi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish, oliv o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”, “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti”, “Turizm:nazariya va amaliyot” fanlarining ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta’lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik mahsulotlari diversifikatsiyalash orqali xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

“milliy hunarmandchilik” iqtisodiy kategoriysi ta’rifi milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va diversifikatsiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish orqali takomillashtirilgan ta’rifi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘sishma choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 5-z ilovasining “Chora-tadbirlar rejası”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 4-fevraldagı №BX-01-33-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, milliy qadriyatlar va madaniy merosning saqlanishi va ommalashuvi ta’minlanishi bilan birga, hunarmandchilik sohasi turizm bilan chambarchas integratsiyalashib, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning barqaror manbalaridan biriga aylantirish imkoniyati vujudga keldi, respublikaning turli hududlarida milliy hunarmandchilik mahsulot va xizmatlarini shakllantirish maqsadida foydalanilgan;

milliy hunarmandchilik mahsulotlari diversifikatsiyalash jarayonlarini joriy etishga moyilligi darajasiga ko‘ra past ( $PLl \approx 0-0,34$ ), o‘rta ( $PLm \approx 0,35-0,64$ ) va yuqori ( $PLh \approx 0,65-1,0$ ) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda har bir tegishli guruh bo‘yicha o‘zgarishlarni baholash ko‘rsatkichlarini kiritish asosida xizmatlar ko‘rsatish sohasi samaradorligini baholashni takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining 16-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 4-fevraldagı №BX-01-33-son ma’lumotnomasi). Natijada, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash darajasi aniq baholanib, hududlarda xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanish dinamikasini tizimli monitoring qilinib, diversifikatsiyalash darajalariga ko‘ra guruhlangan hududlar bo‘yicha resurslarni oqilona taqsimlash, investitsion muhitni yaxshilash va turizm hamda hunarmandchilik o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali iqtisodiy o‘sishning yangi nuqtalari shakllantirilgan;

mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha “Do it yourself! (Buni o‘zing bajar!)” platformasi asosida milliy hunarmandlar faoliyati samaradorligini oshirish strategiyalari ishlab chiqish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagı “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirib soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-sonli qarorida va 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son qarorining 5-b ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 4-fevraldagı №BX-01-33-son ma’lumotnomasi). Natijada, hunarmandchilik subyektlari uchun o‘z mahsulotlarini

raqamli bozorlarda bevosita realizatsiya qilish, xizmatlarni mustaqil tarzda tashkil etish, ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich kengaytirish, savdo xaratjatlarini optimallashtirish, yangi iste'molchilar segmentiga chiqish va eksport salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy daromadni barqaror ravishda ko'paytirish imkoniyatlari yaratildi;

milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi"gi PQ 135-sonli qarorining chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasining 2025-yil 4-fevraldaggi №BX-01-33-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida Buxoro viloyatida faoliyat yurituvchi hunarmandchilik subyektlari sonining ko'payishi hisobiga bandlik darajasini 35,4 foizga oshirish, ya'ni qo'shimcha ravishda 12 mingdan 15 minggacha yangi ish o'rnlari yaratish imkonini beradigan maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natjalari 11 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Pespublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 152 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliqi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiya ishining "**Milliy hunarmandchilik evolyutsiyasi va O'zbekiston hunarmandchiligi rivojlanishining institutsional asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida milliy hunarmandchilik evolyutsiyasi va O'zbekiston hunarmandchiligi rivojlanishining institutsional asoslari, hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalashning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va diversifikatsiyalashning xorij tajribasi tasniflangan.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning tur mush tarzi va qadriyatları rivojida alohida o'rin tutadi. Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo'lishi – sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz"<sup>6</sup>.

Hunarmandchilikning "devalvatsiyasi" texnika taraqqiyoti, xo'jalik hayoti

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.

mexanizmlarining takomillashuvi va hunarmandchilik faoliyatining o‘ziga qarama-qarshi mohiyati bilan bog‘liq jarayondir. Biroq, hunarmandchilikning o‘z-o‘zidan qarama-qarshiliklarni o‘rganish hunarmandchilik faoliyatining tubdan yangi xususiyatlarini ochishga olib kelishi mumkin.

Hunarmandchilik faoliyati bilan umumiylar xususiyatlarga ega bo‘lgan ikkita o‘ziga xos tushuncha (umumiylar – iqtisodiy faoliyat) sifatida kesishadi. Shunday qilib, hunarmandchilik sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi chorrahasida ko‘rib chiqiladi.



### **1-rasm. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlilik<sup>7</sup>**

Aynan hunarmandchilik faoliyati ishlab chiqarish faoliyatining tarixan birinchi turi bo‘lib, boshqa barcha faoliyat turlari hunarmandchilik bilan bog‘liqidir. Demak, “sanoat” tushunchasi hunarmandchilikning ma’lum bir majmuasi sifatidagi hunarmandchilik tushunchasiga bir xil qaytadi. Asosiy toifalarni ajratgan holda, endilikda hunarmandchilik faoliyati va hunarmandchilikning ta’rifini berish mumkin. Hunarmandchilik (tizim) va hunarmandchilik faoliyati (jarayon)ni farqlash kerak.

Demak milliy hunarmandchilik- milliy an’analari, qadriyatlar va madaniyatni o‘zida mujassamlashtirgan mayda tovar mahsulotlarini qo‘l mehnati asboblari yordamida yakka tartibda kichik hajmda ishlab chiqarishga asoslangan xizmatlarning sanoatlashgan turi bo‘lib hisoblanadi.

Milliy hunarmandchilik – bu xalqning urf-odatlari, tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi an’anaviy qo‘l mehnati san’ati. U turli xil amaliy san’at turlarini o‘z ichiga olib, milliy o‘zlikni saqlash, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘sish va turizmni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Milliy hunarmandchilik nafaqat mahalliy bozor, balki jahon miqyosida ham yuksak qadrlanadigan merosdir. Milliy hunarmandchilik – bu nafaqat madaniy merosni asrash vositasi, balki mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiruvchi sohadir.

Mamlakat rivojlanishi va o‘zgarishlarning barchasi diversifikatsiyalash jarayonining kelib chiqishi uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qildi. Hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash bugungi kunda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy mahsulotlarning ulushini kengaytirish hamda madaniy merosni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi. Diversifikatsiyalash deganda mahsulot turini ko‘paytirish, yangi dizayn, texnologiya va innovatsion yondashuvlar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish tushuniladi.

<sup>7</sup>Manbalar asosida muallif ishlanmasi

## 1– jadval

### Hunarmandchilik so‘ziga turli olimlar tomonidan berilgan ta’riflar<sup>8</sup>

<b>№</b>	<b>Ta’rif mualliflari</b>	<b>Keltirilgan ta’riflar</b>
1	V.I.Dal	Hunarmandchilik - kasbiy faoliyat va qo‘l mehnatiga asoslangan ish
2	F.A.Brokxauz va I. A. Efron	Hunarmandchilik - ishlab chiqaruvchida buyurtma asosida va cheklangan mahalliy bozor uchun, shaxslar ishtirokida ayirboshlash qiyamatlarini yaratadigan ishlab chiqarish sanoati tizimi
3	M.Veber	Shaharda dam olish bilan shug‘ullangan qishloq aholisi dehqonlar (hunarmand) deb yuritiladi va ular amalga oshiradigan faoliyati hunarmandchilikdir
4	Myuller V.K <sup>9</sup>	Hunarmandchilik - bu kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni yaratishga imkon beruvchi qo‘l asboblaridan foydalangan holda kichik hajmdagi mahsulotlarni qo‘lda ishlab chiqarish
5	V.Zombart <sup>10</sup>	Hunarmandchilik – o‘z faoliyatini kapitalistik korxona darajasigacha kengaytira olgan kapitalistik ishlab chiqarish sohasidagi kapitalistik tadbirkorlikning bir turi
6	Arastu <sup>11</sup>	Hunarmandchilik – muayyan maqsadga qaratilgan faoliyat bo‘lib barcha hunar turlarida ishni oxirigacha yetkazish uchun tegishli vositalar talab qilinadi, ulardan ayrimlari jonsiz, ayrimlari jonlidir... chunki san’at turlarida hunarmand vosita bo‘lib xizmat qiladi.
7	F.Engels	Hunarmandchilik mustaqil faoliyat sifatida (bundan oldin dehqonning uy hunarmandchiligi mavjud edi) dehqonchilikdan ajralib chiqish orqali ikkinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan.
8	O‘zbek tilining izohli lug`ati <sup>12</sup>	Hunarmandchilik - ishlab chiqarishning kasb-hunar egalari (hunarmandlar) faoliyat yuritadigan sohasi
9	Z. Sattarova <sup>13</sup>	“Hunarmandchilik” so‘zi bir xil kelib chiqishga ega bo‘lib, qo‘l mehnati, qo‘lda jismoniy mehnat degan ma’noni anglatadi
10	S.P.Tolstov <sup>14</sup>	Hunarmandchilik — milliy-an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi bo‘lib shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomidir
11	Mualliflik ta’rifi	Milliy hunarmandchilik - milliy an’analalar, qadriyatlar va madaniyatni o‘zida mujassamlashtirgan mayda tovar mahsulotlarini qo‘l mehnati asboblari yordamida yakka tartibda kichik hajmda ishlab chiqarishga asoslangan xizmatlarning sanoatlashgan turiga aytildi.

<sup>8</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

<sup>9</sup> Мюллер В. Полный англо-русский русско-английский словарь. 300 000 слов и выражений. – Litres, 2013.

<sup>10</sup> Гулямов С.Г. Экономическая роль государства в создании предпосылок развития в сельском хозяйстве Узбекистана. Т., Фан, 1972.

<sup>11</sup> Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Ma’ruzalar matni. Prof. S.S.G’ulomov tahriri ostida. Toshkent, 1992.

<sup>12</sup> Sobirov A. O ‘zbek tilining buguni va kelajagi bo ‘yicha mulohazalar //Uzbekistan: Language and Culture. – 2023. – T. 3. – №. 3.

<sup>13</sup> Z. Sattarova, N. Abdusalomova, N. Ahmedova “Texnologiya 9” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent 2019 y

<sup>14</sup> Сергей Толстов. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. Toshkent, “Yangi asr avlod”, 2014, 380 bet.

Diversifikatsiyalashning foydalari: mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va hunarmandlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, milliy madaniyat va an’analarni asrash va targ‘ib qilish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat.

Shunday qilib, hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, balki madaniy merosni boyitishga xizmat qiladi. Bu orqali tadbirkorlik faoliyati rivojlanib, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining ravnaq topishiga olib keladi.

Dissertatsiya ishining “**Milliy hunarmandchilik sohasi rivojining bugungi holati va tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida milliy hunarmandchilik mahsulotlari eksportining iqtisodiyotga ta’siri hamda hududlar kesimida umumiyligi tahlili, Buxoro viloyatida hunarmandchilik faoliyatini rivojlanishning ekonometrik modeli va milliy hunarmandchilik mahsulotlari samaradorligini baholash usullarining qiyosiy tahlili tadqiq etilgan.

Hunarmandchilik mahsulotlarining xalqaro bozordagi ahamiyatini tahlil qilish jarayonida, ularning iqtisodiy va madaniy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro bozorga chiqqan hunarmandchilik mahsulotlari ko‘pincha yuqori daromad manbaiga aylanishi mumkin, ayniqsa, qo‘l mehnati bilan tayyorlangan noyob buyumlar qimmatli hisoblanadi. Hunarmandchilik mahsulotlari sifatida keramika, chinni, qalin qog‘ozlar, va boshqa turdagisi qo‘l san’atlari mavjud bo‘lib, ular o‘zining eksklyuzivligi va noyobligi bilan bozorda muhim ahamiyatga ega. Dunyo bo‘yicha hunarmandchilik mahsulotlari bozorining hajmi 2024 yilda 45 milliard dollarni tashkil qiladi. Bu miqdor 2023 yilga nisbatan 0,2% o‘sdi.<sup>15</sup> Hunarmandchilik mahsulotlarining eksport hajmi ham sezilarli darajada oshmoqda. Masalan, 2023 yilda global hunarmandchilik eksporti 7 milliard dollarni tashkil etdi.<sup>16</sup>

O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so‘nggi yillarda mamlakatimizdagi xalq hunarmandlar soni 8 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko‘payib, sohada band bo‘lganlar soni 50 ming nafarga yetdi. Ayniqsa, mintaqalarda xalq hunarmandlarining amaliy san’atini yanada rivojlantirish asosida, mintaqalarda milliy xalq hunarmandlarining kataloglarini yaratish, xalqaro ko‘rgazma hamda tanlovlarni tashkil etish va xalq hunarmandlar turizm reyestriga kiritish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi hunarmandchilikni rivojlantirish, ularga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Buxoro viloyatida hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning ekonometrik modeli sifatida chiziqli regressiya tenglamasini aniqlaymiz.

Bizning holimizda to‘rt omilli chiziqli regressiya tenglamasining umumiyligi ko‘rinishi quyidagicha yoziladi:

$$Y=a_0+a_1X_1+a_2X_2+a_3X_3+a_4X_4 \quad (1)$$

2-jadvaldan foydalanib ifodani quyidagicha yozamiz:

$$\begin{array}{cccccc} Y = -617,94 + 286,96 X_1 - 0,871 X_2 - 833,088 X_3 + 5,525 X_4 \\ -2,787 \quad 3,886 \quad -2,145 \quad -1543 \quad 7,266 \end{array} \quad (2)$$

<sup>15</sup> Saha D., Giribabu M. Handicraft Sector of India: Overview of Production and Export Potentiality.

<sup>16</sup> Нуммела М. Факторы, мотивирующие экспонентов к участию в международных выставках, и влияние устойчивого развития: Кейс: Pulp & Beyond 2024. – 2024.

(2) dan ko‘rish mumkinki, 3-omil bo‘yicha aniqlangan qiymatlarni tahlil etilsa, X3 ning oldidagi koeffitsiyenti ahamiyatsiz ( $-1,543 < 2,1$ ); modelning chiziqli bo‘lish gipotezasi faqat shu omil bo‘yicha bajarilmaydi ( $p=0,14 > 0,05$ ). Qolgan barcha holatlarda sifatli empirik model qurilganligini ta’kidlash mumkin. U holda (2) ning adekvat holatini quyidagicha yozib olamiz:

$$Y = -617,94 + 286,96 X_1 - 0,871 X_2 - 833,088 X_3 + 5,525 X_4 \quad (3)$$

Shu o‘rinda (3) modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini tekshirish maqsadga muvofiq, u holda uni Darbin-Uotson mezoni bo‘yicha tekshiramiz:

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^T (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = \frac{\sum_{t=2}^T e_t^2 + \sum_{t=2}^T e_{t-1}^2 - 2 \sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} = 2 - 2 \frac{\sum_{t=2}^T e_t e_{t-1}}{\sum_{t=1}^T e_t^2} \approx 2(1 - \rho_i) \quad (4)$$

bu yerda,  $\rho_i$ - birinchi tartibdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Bu mezon bo‘yicha ijobjilik DW ning 2 atrofidagi qiymati bilan izohlanadi. Tanlangan omillar bo‘yicha birinchi tartibdagi korrelyatsiya koeffisiyentini hisoblaymiz, ya’ni  $\rho_i = -0,2368$ . U holda tenglik  $DW = 2,4735$  o‘rinli bo‘ladi. Bu esa modelning sifati yuqori ekanligini bildiradi. Bu omillarning qiymatlari 2-jadvalda keltilgan.

## 2-jadval

### Buxoro viloyatida hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar asosida chiziqli empirik modelni qurish<sup>17</sup>

Regressiya statistikasi				
Ko‘plikda R	R-kvadrat	Normallash-tirilgan R-kvadrat	Standart xatolik	Kuzatishlar
0,999808683	0,999617403	0,999515377	232,9856526	20
Dispersiyani tahlil qilish				
	SS	MS	F	Ahamiyatli F
Regressiya	4	2127363969	531840992,3	9797,684549
Qolgan	15	814234,7149	54282,31432	
Natija	19	2128178204		
Imkoniyatlari		Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat
Y-natija	-617,9393807	221,7528035	-2,786613612	0,013828061
O‘zgaruvchan X1	286,9639174	73,83926673	3,886332166	0,001461415
O‘zgaruvchan X2	-0,871256267	0,406124698	-2,145292498	0,048707349
O‘zgaruvchan X3	-833,0880684	539,9548602	-1,542884655	0,143689759
O‘zgaruvchan X4	5,524631658	0,760329855	7,266098552	0,000000276

Mana birinchi tartibli korrelyatsiya koeffitsienti. Ushbu mezon bo‘yicha pozitivlik taxminan 2 DW qiymati bilan izohlanadi. Tanlangan omillar uchun birinchi tartibli korrelyatsiya koeffitsientini hisoblaymiz, ya’ni, bunday holatda tenglik mos keladi.

(3) model bo‘yicha Buxoro viloyatida hunarmandchilik korxonalari ishlab chiqarish iqtisodiy o‘sishining prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun bu modelning ekzogenlari uchun trend modellarni aniqlaymiz. Buning uchun MS Excel dasturidan foydalanamiz:

<sup>17</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Yuqorida hisoblangan trend modellari tahlili va ulardan olingan natijalar asosida olingan prognozlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, buni 3-jadvaldan ko‘rish mumkin.

**3-jadval**

**Buxoro viloyatidagi hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi va ta’sir etuvchi omillar prognozi<sup>18</sup>**

Prognoz yillari	Hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (million so‘m)	KBXT subyektlarida hunarmandchilik faoliyatiga bilan shug‘ullanuvchilar ulushi (foiz) X <sub>1</sub>	Hunarmandchilik faoliyatiga investitsiyalar (million so‘m) X <sub>2</sub>	Hunarmandchilik xizmatlari hajmi (million so‘m) X <sub>4</sub>
2022	40562,1	9,42	20117,14	10135,65
2023	48134,82	9,79	24248,92	12138,21
2024	57154,43	10,17	29229,31	14536,44
2025	67901,01	10,54	35232,61	17408,5
2026	80708,83	10,91	42468,9	20848,01
2027	95976,74	11,29	51191,43	24967,09

3-jadval tahlili shuni ko‘rsatadi, Buxoro viloyatidagi hunarmandchilik korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish hajmi modelidan olingan prognozlarga ko‘ra, 2024 yilga nisbatan 2027 yilda 1,7 barobarga o‘sishi prognoz qilingan.

**4-jadval**

**Buxoro viloyatida hunarmand mahsulotlari eksportini sohalar bo‘yicha tarkibi tahlili<sup>19</sup>**

Yillar	Qiymati (ming.dollar)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo	Turizm	Ko‘rgazmalar	Onlayn savdo
2019	10	0,3	0,1	0,25	0,35
2021	12	0,25	0	0,45	0,3
2022	20	0,1	0,05	0,55	0,3
2024	23	0,1	0,06	0,61	0,4
<b>2019 yilga nisbatan o‘sishi, %</b>	<b>65</b>	<b>0,75</b>	<b>0,21</b>	<b>1,86</b>	<b>1,35</b>

Keltirilgan 4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksportini sohalar bo‘yicha tarkibi 2024 yilda 2019 yilga nisbatan eksport qiymati 10 ming dollardan 23 ming dollarga yetdi, ko‘rgazmalar orqali 36 hamda onlayn savdo 5 foizga oshgan.

Viloyatda hunarmandchilikni rivojlantirishda hududlarning hunarmandchilik faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashuv darajalarini aniqlash va ularni yanada chuqurlashtirish, yetakchi hunarmandlar o‘rtasida “Hunarmandchilik klasterlari”ni tashkil etish orqali hunarmandchilik mahsulotlari sifatini yaxshilash va ularni eksporti hajmini oshirish, maktab o‘quvchilarini hunarmandchilik to‘garaklariga jalb etish, hunarmandchilik faoliyatini boshlash uchun markazlarni tashkil etish zarur.

Yuqorida ko‘rib chiqqan ma’lumotlarimiz natijasida O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikning hozirgi holati bo‘yicha SWOT tahlilini amalga oshirdik.

<sup>18</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

<sup>19</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi


## O‘zbek milliy hunarmandchiligining SWOT tahlili<sup>20</sup>.

Kuchli tomonlari (Strengths)	Kuchsiz tomonlari (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> <li>• katta, diversifikatsiyalangan va potentsial bozor;</li> <li>• turli xil tovar turlari mavjud;</li> <li>• davlat tomonidan yaratib berilayotgan imtiyozlar;</li> <li>• ishchi kuchi ya’ni mehnat stavkasi arzonligi raqobatbardosh narxga olib keladi;</li> <li>• mablag‘ning oz miqdorda sarflanishi;</li> <li>• ishlab chiqarishning moslashuvchanligi;</li> <li>• merosiy an’analarning davomiyligi;</li> <li>• yangiliklarga nisbatan g‘ov va to’siqlarning yo‘qligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• infrastruktura va aloqa vositalarining yetishmasligi;</li> <li>• xalqaro standart va bozorning jahon standartlariga mos kelmaydigan holatlari;</li> <li>• jahon bozorida hunarmandchilik tovarlari reklamasining kamligi;</li> <li>• elektron tijoratning rivojlanmaganligi;</li> <li>• tovarlarni sotish uchun mo‘ljallangan internet magazin va platformalarning mavjud emasligi;</li> <li>• raqamli marketingdan foydalanilmasligi.</li> </ul>
Imkoniyatlari (Opportunities)	Xavf soluvchi tahdidlar (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> <li>• moda sanoatini rivojlantirish hunarmandchilik mahsulotlarini talab qiladi;</li> <li>• mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish;</li> <li>• yagona hunarmandchilik brendini ishlab chiqish;</li> <li>• chet davlatlarida hunarmandchilik ko‘rgazmalarini tashkillashtirishni rivojlantirish;</li> <li>• festivallarning yanada ko‘proq tashkil qilinishi;</li> <li>• e-savdo va internet mahsulotlarini sotish va sotib olish</li> <li>• hunarmandchilik markazlarini tashkil etish va ularga yoshlarni jalb qilish;</li> <li>• imkoniyati cheklangan fuqorolarni ish bilan ta’minlash;</li> <li>• milliy hunarmandchilikni ifodalovchi videorolik va virtual ko‘rgazmalarni kengaytirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ichki bozorda raqobatning ko‘payishi;</li> <li>• yuqori talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat;</li> <li>• sanoatning tezkor rivojlanishi;</li> <li>• milliy an’analarga bo‘lgan e’tiborning pastligi;</li> <li>• Chet mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar.</li> </ul>

Mazkur SWOT tahlildan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, o‘zbek milliy hunarmandchiligi juda yuqori salohiyatga ega, biroq o‘zbek hunarmandchiligini xalqaro nufuzini oshirishda raqamli marketingdan yetarlicha foydalanilmasligi rivojlanish muddatlarini uzaytirib yubormoqda.

<sup>20</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Xizmatlar ko'rsatish xususan hunarmandchilik sohasining samaradorligi ko'rsatkichini tahlil qilishda uning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiruvchi integral ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish lozim bo'ladi. Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatishicha, xizmatlar ko'rsatishning xususan hunarmandchilik miqdor ko'rsatkichlari ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni, xizmatlarga bo'lgan talab, xizmat ko'rsatishda band bo'lganlarning soni, xizmat ko'rsatishdan olingan foyda yoki daromad kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topsa, xizmatlar ko'rsatishning sifat ko'rsatkichlari o'zaro ta'sir doiralari, atrof-muhit va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatida o'z aksini topadi (2-rasm).



**2-rasm. Xizmatlar ko'rsatish sohasining samaradorligi ko'rsatkichining tarkibiy komponentlari<sup>21</sup>**

Iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlanish samaradorligi ko'rsatkichlarini baholash uslubiyotini tadqiq etishga qaratilgan ko'p sonli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, hali hanuz umumqabul qilingan yagona yondashuv shakllanib ulgurmagan.

O'zbekistonda xizmatlar sohasi jadal rivojlanmoqda va iqtisodiyotdagi ulushi oshib bormoqda. 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasi hajmi 5,27 trillion so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 12,9% o'sishni ko'rsatmoqda. Xizmatlarning asosiy turlari va ulushlari quyidagicha:

-savdo xizmatlari: 31,7% ulush bilan eng katta qismni egallaydi, o'sish sur'ati 14,7%.

- moliyaviy xizmatlar: 20,8% ulush va 12% o'sish sur'ati.

- transport xizmatlari: 20,6% ulush, ayniqsa, avtomobil transporti sohasida 9,9% o'sish kuzatilgan.

- ta'lim xizmatlari: 4,7% ulush bilan eng tez o'sayotgan yo'nalishlardan biri, 48% o'sish ko'rsatkichiga ega.

<sup>21</sup> [www.handicraft.uz](http://www.handicraft.uz) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

-yashash va ovqatlanish xizmatlari: 4,2% ulush, o'sish sur'ati 8,1%<sup>22</sup>.

Shuningdek, kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hissasi muhim bo'lib, jami xizmatlar hajmining 59,5% ni tashkil qilmoqda. Iqtisodiy adabiyotda xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari samaradorligini baholashning tarmoq yondashuvi ham shakllangan. Tahlil natijalariga ko'ra, xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanish samaradorligini baholashning tarmoq yondashuvi uchun quyidagi xususiyatlardan xos hisoblanadi:

- tadqiqot obyektining mazmuniga e'tibor qaratiladi – bunda xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat yuritishning barcha shakllari yagona bir tarmoq sifatida baholanib, ushbu turmoqagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholashda alohida xo'jalik faoliyati yurituvchi hunarmandchilik korxona va tashkilotlardan tortib, o'rganilayotgan sohaga xizmat ko'rsatuvchi, jumladan unga bevosita va bilvosita aloqador bo'lган tarmoq va sohalarning o'zaro ta'sir doiralari, ular o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan tizimlashtirilgan holda tahlil qilanadi;

- xizmatlar ko'rsatish sohasi samaradorligini to'liq mazmunda baholash imkonini beradi – bunda samaradorlik ko'rsatkichini baholashda xizmatlar ko'rsatish sohasi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaralib, o'rganilayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish samaradorligi ko'rsatkichlarini avvalgi davrlarga nisbatan qiyosiy taqqoslash imkoniyati vujudga keladi;

- samaradorlik ko'rsatkichini baholashning murakkabligi – hunarmandchilik sohasining amal qilishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini hunarmandchilik mahsulotlari va xizmatlar ishlab chiqaruvchi iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslangan holda baholanadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, ekologik, madaniy jihatlarini o'zida aks ettirgan xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish samaradorligini baholash uslubiyotini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz. Bu turdag'i baholash uslubiyoti 3-rasmda keltirib o'tilgan algoritmik tuzilishga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.


3-rasmda taklif etilayotgan samaradorlikni baholash uslubiyotidan xizmatlar ko'rsatishning har qanday soha va tarmoqlaridan foydalanish imkoniyati mavjud hisoblanadi. Shuningdek, taklif etilayotgan algoritm asosida xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish samaradorligini baholash uslubiyotini shakllantirish to'rt bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda samaradorlik ko'rsatkichini baholash uchun zarur bo'lган ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi.

Har bir bosqich o'zaro bog'langan holda ketma-ketlik asosida tuzilgan bo'lib, bunda xizmatlar ko'rsatish samaradorligi ko'rsatkichiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir doiralaridan kelib chiqqan holda ularni turli guruhlarga ajratish lozim bo'ladi.


Taklif etilayotgan algoritm asosida xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish samaradorligini kompleks baholashning ikkinchi bosqichida mamlakatda xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlari, uning mavjud kamchiliklari va yutuqlarini to'liq baholash imkoniyatini beruvchi uslubiyotni shakllantirish lozim.

Bunda xalqaro tashkilotlar ekspertlari va taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, yaqin xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, mamlakatimiz amaliyoti uchun xos bo'lган uslubiyotni ishlab chiqish lozim bo'ladi.

<sup>22</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) manbasi asosida muallif ishlanmasi




**I bosqich. Samaradorlikni baholash bo'yicha ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish**



**II bosqich. Samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha baholash uslubiyotini tanlash**



**III bosqich. Diversifikatsiya jarayonlarini jariy etishga moyillik uslubiyoti asosida darajalarga mansubligini aniqlash**



**IV bosqich. Samaradorlik darajasi bo'yicha xulosa chiqarish**

**3-rasm. Xizmatlar ko'rsatish sohasining hunarmadchilik mahsulotlari yo'nalishi rivojlanish samaradorligini baholash uslubiyoti<sup>23</sup>**

<sup>23</sup> Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Fikrimizcha, bunda quyidagi talablarni inobatga olish orqali uning kompleksliligini ta'minlashga erishiladi:

- mamlakatning (yoki viloyatning) hunarmadchilik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan hududlaridan foydalanish holati;
- mamlakatning (yoki viloyatning) xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlab chiqarilayotgan, jumladan, hunarmadchilik mahsulotlar va xizmatlarning turlari, ularning narxi va sifat ko'rsatkichlarining ko'rsatilayotgan xizmatlardan foydalanuvchilar uchun maqbulligi;
- mamlakatning (yoki viloyatning) xaridorlarni o'ziga jalb qila olish bo'yicha afzallik va ustunlik jihatlaridan foydalanish holati;
- xizmatlar ko'rsatish bozorida band bo'lgan aholining ma'lumoti va daromadi bo'yicha guruhanishi;
- mamlakatning (yoki viloyatning) hunarmadchilik mahsulotlar ishlab chiqarish xizmatlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatkichlari;
- mamlakatning (yoki viloyatning) tarixiy-me'moriy obidalari, ularga mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish orqali xizmatlardan foydalanuvchilar yoxud xaridorlar sonini oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni tashkil etilganligi holati;
- xizmatlar iste'molchilarining qo'shimcha xizmatlardan foydalanish bo'yicha istak-xohishlarini uyg'ota olish imkoniyatlari;
- xizmatlar iste'molchilari uchun, jumladan, mahalliy va xorijiy turistlar yaxshi xarid qilishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va h.k.

Shuningdek, taklif etilgan algoritm asosida xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish samaradorligini kompleks baholashning uchinchi bosqichida birinchi va ikkinchi bosqich natijalariga asoslangan holda uchinchi bosqichda milliy hunarmandchilik mahsulotlari diversifikatsiyalash jarayonlarini joriy etishga moyilligi darajasiga ko'ra past ( $PL_f \approx 0,34$ ), o'rta ( $PL_m \approx 0,35-0,64$ ) va yuqori ( $PL_h \approx 0,65-1,0$ ) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda har bir tegishli guruh bo'yicha o'zgarishlarni baholash ko'rsatkichlarini kiritish asosida xizmatlar ko'rsatish sohasi samaradorligi baholangan.

So'nggi to'rtinchchi bosqichda mamlakat (yoki viloyat) xizmatlar ko'rsatish sohasini tizim sifatida, xususan, turizm industriyasining rivojlanish ko'rsatkichlari, jumladan, hunarmadchilik mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zaro alohida tahlil qilish asosida sohadagi mavjud kamchiliklar, erishilgan natijalar, xizmatlar sohasini rivojlantirish salohiyatidan foydalanish holati bo'yicha tegishli xulosalarni chiqarishga erishilishi bilan bir qatorda, olingan natjalarning kompleksliligi ta'minlanadi.


Fikrimizcha, taklif etilayotgan algoritm asosida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmini shakllantirish, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatda ushbu sohani isloh etish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hunarmandchilik rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i bo'lib qolmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda hunarmandchilik hali ham bandlikning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu yerda o'ziga xos iqtisodiy-ijtimoiy hodisa – "yangi hunarmandchilik xo'jaligi" shakllandi.

Dissertatsiya ishining **"Buxoro viloyatida milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash orqali iste'molchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobida milliy

hunarmandchilikni diversifikatsiyalash orqali iste'molchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligi oshirish yo'llari, "Buni o'zing bajar!(Do it yourself)" platformasi asosida Buxoro viloyatidagi milliy hunarmandlar faoliyati samaradorligini oshirish strategiyalari, Buxoro viloyatidagi milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning prognoz parametrlari bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlardan kelib chiqib, mamlakatda zamonaviy hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Mazkur dasturni ishlab chiqishda Hunarmandlar uyushmasi, usta hunarmandlar va ushbu sohada faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan holda, respublika hududlarida yashovchi aholining hayotiy turmush tarzidan kelib chiqib, zamonaviy hunarmandchilik sohalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

"Zamonaviy hunarmand" davlat dasturi tarkibida bugungi kunda rivojlangan, masofadan turib xizmat ko'rsatuvchi frilanser xizmatlarini rivojlantirishga e'tiborni oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun, mamlakatda hududlar kesimida "Freelancer" xizmatlarini ko'rsatuvchilar uchun sharoitlarni va ish topish imkoniyatini oshirish uchun elektron platformalar yaratish zarur.



**4-rasm. "Zamonaviy hunarmand" davlat dasturining tarkibiy tuzilishi<sup>24</sup>**

Turizm mahsulotlarini (hunarmandchilik) targ'ibotini axborot bilan ta'minlash tizimining asosiy elementi sifatida internet-sayt yaratish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. O'rGANISHLAR natijasida quyidagi platformani ishlab chiqish va bu orqali nafaqat hunarmandchilik, balki butun turizm sohasi rivojlantirishni ta'minlash mumkin. Qolaversa, platformamizdagi mahsulotlar narxlari bozordagidan past bo'ladi. **"Do it yourself" (Buni o'zing bajar) – nomli mobil ilova.** "Do it yourself" platformasi play market ilovasi orqali sayyoohlар mobil telefonlariga yuklanishi mumkin va bu platforma yuklangandan so'ng individual va guruhiy tartibda sayohat qiluvchi sayyoohlар quyidagi ma'lumotlarni olishi mumkin:

<sup>24</sup>Manbalar asosida muallif ishlanmasi

1. Buxoro viloyatida joylashgan hunarmandchilik markazlari va ularning joylashuvi xususida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi. Nimaga aynan hunarmandchilik markazlari, chunki sayyoohlar bunday markazlarda nafaqat hunarmandchilik mahsulotlarini ko‘rishlari, xarid qilishlari, balki, hunarmandchilik faoliyati jarayonida bevosita ishtirok etishlari mumkin.

2. Hunarmandchilik markazlari qoshida joylashgan umumiyligi ovqatlanish korxonalarini, xususan, halol standart asosida xizmat ko‘rsatadigan umumiyligi ovqatlanish korxonalarini, joylashtiruv vositalarini ko‘ra oladi. Sayyoohlar bevosita aynan shunday hunarmandchilik turlarini ko‘rish maqsadida tashrif buyurishar ekan bunday markazlar yaqinida yana qanday xizmat turlari mavjudligi to‘g‘risidagi tushunchaga ega bo‘ladilar, qaysiki, bu orqali sayyoohlar boshqa xizmatlardan ham foydalana olishlari mumkin bo‘ladi.

3. Mobil ilovada Katalog menyusi joylashtirilgan bo‘lib, unda Respublikamizdagi hunarmandchilik festivallari to‘g‘risida ma’lumotlar joylashtiriladi. Bu ma’lumotlar katalogi orqali sayyooh nafaqat viloyat, balki butun respublika miqyosidagi o‘tkaziladigan festivallar haqida ma’lumot oladi va keyingi tashrif vaqtini bevosita rejalashtira oladi.

4. Ilovada Buxoro viloyatining mashhur turistik marshruti eski shahar atrofidagi hunarmandlar faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan obyektlar ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bu orqali sayyoohlar tanlayotgan turistik marshruti bo‘ylab qanday tarixiy obidalar mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan birgalikda qanday hunarmandchilik obyektlari borligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.


5. Yana bir mashhur obyektlardan biri 7-pir ziyoratgohi atrofidagi hunarmandlar haqida ma’lumotlar joylashtiriladi. 7 pir ziyoratgohi bo‘ylab sayohatni amalga oshirish jarayonida bir necha yillardan buyon avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan hunarmandchilik faoliyatlar haqida ma’lumotlar berilib shu ziyoratgohlar qoshidagi hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtiriladi.

6. Mobil ilovada ish faoliyatini endigina boshlagan hunarmandlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham joylashtiriladi. Qaysiki, mashhur hunarmand o‘z mahsulotini chet el festivallariga muntazam ravishda qatnashib, markazning ijtimoiy tarmoqlardagi reklamalari yordamida o‘z mijozlariga ega va mahsulotlarini sota oladi. Yangi ish boshlagan hunarmandlar uchun esa bu platforma ularni dunyoga tanitish uchun ko‘makchi bo‘ladi.

7. Ilovada bu obyektlarga eltuvchi marshrutlar va transport xizmatlarining raqamlari ham ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bunda ilovani ishga tushirib qaysi obyektga qanday borilishi to‘g‘risidagi ma’lumotga ham ega bo‘lish mumkin.

8. Ilovada chekka hududlardagi hunarmandlar, ayol hunarmandlar va imkoniyati cheklangan hunarmandlarning hunarmandchilik ishlari ko‘rgazmasi joylashtiriladi. Bunda sayyooh ishlarni katalog orqali tomosha qilishi va agar shu ishga qiziqish bildirsa uni belgilab ish egasi to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi va sotib olishga buyurtma berishi mumkin.

Dastur ishga tushirilgandan so‘ng undan sayyooh nafaqat hunarmandlar va hunarmandchilik markazlari balki, markazlar qoshida joylashtirilgan boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlarining joylashgan o‘rnini to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi ham mumkin. Bu orqali hunarmandchilik sohasigina emas, boshqa xizmat ko‘rsatish sohalarini ham rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Platforma mahalliy hunarmandlar faoliyatini tanitish uchun ham xizmat qiladi. Hozircha platforma faqat O‘zbekiston hududida ishlaydi. Muayyan auditoriya va daromad yig‘ilganidan keyin dasturni Markaziy Osiyo va jahon miqyosiga olib chiqish maqsad qilingan. Platformadan foydalanish tekin bo‘ladi.



## 5-rasm. Taklif etilayotgan www.hunarmand.uz platformasining mavjud platformalardan farqli jihatni

“Do it yourself” platformasi sun’iy intellekt bilan integratsiya qilingan bo‘lib, imkoniyati cheklangan kishilar dasturdan sun’iy intellekt va virtual ovozli yordamchi orqali foydalana oladi. Dasturni Play Market orqali yuklab olish mumkin. Yuklab olingandan keyin dasturga kiriladi, sun’iy ovozli yordamchi platforma haqida ma’lumot berib, uni foydalanuvchiga tanishtiradi. Dastur qanday ishlashi, mahsulot qanday joylashtirilib, sotuvga qo‘yilishi tushuntirilganidan keyin, bemalol undan foydalanishni boshlash mumkin. Ilova Uber modeli asosida yaratilgan bo‘lib, u sayyoh va hunarmandlarni uchrashadiradi. Unda hunarmandchilik va boshqa ximatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar soddalashtirilgan. Foydalanuvchi saytni ochganda, u taklif etilayotgan xizmatlarni rasm ko‘rinishida ko‘ra olishi mumkin.


Loyihada foydalanuvchi interfeysi ishlab chiqilgan web-ilovaning vizual jihatlari jozibador va foydalanuvchiga qulay qilib tayyorlangan. Mualliflar bu ilova uchun investor topish bosqichida bo‘lib bugungi kunda bu loyihani hunarmand uyushmasiga taqdim etib, uyushma xodimlaridan ilovani o‘zlarining bir qator delegatsiyalari tashrifidagi turistik marshrutlariga qo‘shish taklifini bildirganlar.

Biz taklif etayotgan platformaning boshqa platformalardan farqli jihatlari hunarmand elektron tartibda ro‘yxatdan o‘tishi, hunarmandchilik mahsulotlarini sotuvga

qo‘yish va narxi ko‘rsatilishi mumkin. Bunda hunarmand haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyati beriladi. Har bir hunarmandchilik turi bo‘yicha saralash imkoniyati mavjudligi bilan bir qatorda hunarmand va hunarmandlik markazlarining geopozitsiyasini aniqlash mumkin. Hunarmandchilik mahsulotini sotib olish uchun buyurtma berish imkoniyati esa hunarmandlar uchun iqtisodiy foyda keltiradi.

2024–2028 yillar uchun tuzilgan polinom trend modellari asosida prognoz qilingan ko‘rsatkichlarga ko‘ra, 2028 yilda turizm xizmatlaridan tushgan tushum hajmi 2024 yilga nisbatan 4,6 martaga oshadi. Bu esa Buxoro viloyatining turizm salohiyati tobora kengayib borayotganini anglatadi.

Mazkur ko‘rsatkichning keskin o‘sishi nafaqat turistik infratuzilmaning kengayishi, balki mahalliy hunarmandchilik sohasining tiklanishi va eksportbop mahsulotlar bilan sayyoohlarni qiziqtirish orqali ko‘proq tushum shakllanishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, zardo‘zlik, zargarlik, kulolchilik va yog‘och o‘ymakorligi kabi milliy hunarmandchilik turlari bu sohaga bevosita hissa qo‘shmoqda. (6-rasm).



**6-rasm. Turizm va xizmatlar sohasi faoliyatidan tushgan tushum dinamikasi<sup>25</sup>**

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, tahlil qilingan davr mobaynida Buxoro viloyatida turizm faoliyatidan tushgan tushum hajmi izchil o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Ayniqsa, xorijiy va mahalliy mehmonlarning mamlakatimizda qolish davomiyligi oshgani, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga va turistik mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortganidan dalolat beradi.

Bu holat turizm sohasidagi xizmatlar samaradorligining oshishi bilan bir qatorda, mahalliy hunarmandchilik faoliyati uchun keng amaliy asos yaratayotgani bilan ajralib turadi. Sayyoohlarning milliy hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishi, ularni xarid qilish orqali bu sohada faoliyat yuritayotgan ustalarning daromad manbalarini kengaytirmoqda.

<sup>25</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz). ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Buxoro viloyati aholisini hunarmandchilik sohasiga keng jalg qilish asosida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- hunarmandchilik sohasida o'z faoliyatini boshlash istagida bo'lgan aholi guruhlariga, jumladan, kam ta'minlangan oila a'zolari, ayollar va yoshlarga boshlang'ich kapitalning 50 foizi miqdorida mahalliy budgetdan subsidiya ajratish;
- yuqori salohiyatga ega bo'lgan yosh, iqtidorli hunarmandlar faloiyatini rag'batlantirish maqsadida ularga nisbatan soliq imtiyozlarining ajratilishi;
- hunarmand ayollarga uy sharoitida hunarmandchilik bilan shug'ullanishi uchun imtiyozli kreditlash amaliyotini yo'lga qo'yish;
- viloyatda hunarmandchilik sohasiga aholini keng jalg etish maqsadida "Iqtidorli yosh hunarmand", "Iqtidorli ayol hunarmand", "Faoi hunarmand" maqomini berish orqali ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish;
- hunarmandchilik faoliyatini kengaytirish istagida bo'lgan hunarmandlarga davlat tasarrufidagi bo'sh turgan bino va inshootlarni foydalanishga topshirish.

Ijtimoiy-demografik tendentsiyalar, xususan, aholining qarishi, iqlim o'zgarishi, migratsiya, ijtimoiy qadriyatlarda, jamiyat va iste'molchilarining resurslar tabiatidagi tasavvurlari o'zgarishlari turizmni yangi bozor talablariga moslashishga majbur qildi. Bozor va mahsulotni diversifikatsiya qilish strategiyalari yangi va haqiqiy mahsulotlarni ishlab chiqish orqali o'sishni rag'batlantiradi. Ko'pincha, ular xavf-xatarni o'z zimmalariga oladilar, chunki yuqori investitsiya xarajatlarini jalg qilish, moliyaviy resurslarni haddan tashqari ko'paytirish va sotib olishni himoya qiladi.

Hunarmandchilik mahsulotlari ham aynan shu turizm bozori orqali sotiladi va jarayonda to'liq ishtirok etadi. Hunarmand tomonidan yaratilgan mahsulotlar savdo rastalari, elektron platforma va festivallar orqali turistlarga yetkaziladi. Sayyoh qanday maqsadda tashrif buyurmasin, mamlakatimizning milliy an'analarini o'zida aks ettirgan ma'lum hunarmandchilik mahsulotini xarid qilib qaytadi. Tashrif buyuruvchi sayyoohlар sonining muntazam ravishda ortib borishi hunarmandchilik mahsulotlarining sotish hajmining oshishi uchun ham xizmat qiladi. Turizm sohasida ko'rsatilgan xizmatlar samaradorligini oshirish, ularni diversifikatsiyalash hunarmandchilik sohasining rivoji uchun ham amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. "O'zbekiston - 2030 strategiyasi" doirasida qabul qilinayotgan O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyoohlар sonini oshirish masalalariga doir qaror va farmonlarda belgilangan ustuvor vazifalar asosida hunarmandchilik sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur tadqiqotda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'llari asoslanib, mamlakatimizga keluvchi sayyoohlarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlari dalillandi.

2. "Milliy hunarmandchilik" iqtisodiy kategoriysi ta'rifi milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va diversifikatsiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq

etish orqali takomillashtirildi. Bunga ko‘ra, milliy hunarmandchilik - milliy an’analar, qadriyatlar va madaniyatni o‘zida mujassamlashtirgan mayda tovar mahsulotlarini qo‘l mehnati asboblari yordamida yakka tartibda kichik hajmda ishlab chiqarishga asoslangan xizmatlarning sanoatlashgan turiga aytildi.

3. Milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va diversifikatsiyalashning Yapon, Xitoy, Hindiston, Turkiya tajribalari asosida mamlakatimizda xizmatlar ko‘rsatish sohasini milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asosida rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish uzoq muddatli istiqbolda ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirgan holda, barqaror rivojlanishiga erishish imkonini beradigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. Ekonometrik modellashtirish asosida Buxoro viloyatidagi milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning 2028 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

5. Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, ekologik, madaniy jihatlarini o‘zida aks ettirgan xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanish samaradorligini baholash uslubiyoti taklifi berildi va unda milliy hunarmandchilik mahsulotlari diversifikatsiyalash jarayonlarini joriy etishga moyilligi darajasiga ko‘ra past ( $PL \approx 0-0,34$ ), o‘rta ( $PL_m \approx 0,35-0,64$ ) va yuqori ( $PL_h \approx 0,65-1,0$ ) darajali guruhlarga tabaqlashtirish hamda har bir tegishli guruh bo‘yicha o‘zgarishlarni baholash ko‘rsatkichlarini kiritish asosida xizmatlar ko‘rsatish sohasi samaradorligini baholashni takomillashtirish taklifi ilmiy asoslab berildi.

6. Milliy hunarmandchilikni diversifikatsiya qilish orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy daromadni ko‘paytirish, milliy madaniyatimizni global miqyosda tanitishga xizmat qilishi o‘rganildi. Raqamlı marketing, zamonaviy texnologiyalar va turistik xizmatlarni integratsiya qilish orqali hunarmandchilikning rivojlanishiga erishishni nazarda tutib, mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha “Do it yourself! (Buni o‘zing bajar)” platformasi asosida milliy hunarmandlar faoliyati samaradorligini oshirish strategiyalari ishlab chiqildi. Bunda alohida platforma ishlab chiqilib, unda bevosita hunarmandlarning o‘zi ro‘yxatdan o‘tib mahsulotlarni sotish imkoniyatini beruvchi qismi joriy qilindi.

7. Jahan amaliyoti tahliliga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda byudjet xarajatlarini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash samaradorligi va manzillilagini oshirishda budjetdan tashqari maqsadli fondlar faoliyatidan keng foydalaniladi. Shu bilan birgalikda, hunarmandchilik korxonalari o‘rtasidagi integratsion birlashmalarni tashkil etish orqali ular o‘rtasida hamkorlikdagi investitsion loyihalarni amalga oshirilishi davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, mamlakatimizda hunarmandchilikni investitsiyalash samaradorligini oshirishning maqsadli moliyalashtirish amaliyoti taklif etildi.

8. Mamlakatda hunarmandchilikni investitsiyalash samaradorligini oshirishning maqsadli moliyalashtirish amaliyotiga o‘tish zarur. Shuningdek, Buxoro viloyatida hunarmandchilikni hunarmandlar o‘rtasida kooperatsiyalashgan, keng tarmoqli hunarmandchilik uylarini tashkil etish, mehnatga layoqatli yoshdagisi ishsiz aholi guruhlarini usta-hunarmandlarga bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan

biriktirish asnosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 04-oktyabrdagi PQ-347-soni “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga asosan “Hunar-zar” markazlarini tashkil etib, chekka qishloq aholisini ish bilan ta’minlash yo‘nalishi loyihasi ishlab chiqildi.

9. Buxoro viloyatida hunarmadchilik korxonalari soni bilan bandlar soni ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikka asoslanib, prognoz ko‘rsatkichlari hisob-kitob qilindi. Bazaviy prognozlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda viloyatda hunarmadchilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar shu yo‘sinda davom ettirilgan taqdirda, 2030 yilga borib, viloyatda hunarmadchilik korxonalari soni ortishi hisobiga bandlar sonini 2022 yilga nisbatan 23,2 foizga oshirish mumkin bo‘ladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТИ  
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

---

**РУЗИЕВА ГУЛИНОЗ ФАТИЛЛОЕВНА**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБСЛУЖИВАНИЯ  
ПОТРЕБИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ  
НАЦИОНАЛЬНОЙ РЕМЕСЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ**

**08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Бухара – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирован за номером B2024.4.PhD/Iqt4676 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан**

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Бухарского государственного университета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на информационно-образовательным портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))

**Научный руководитель:**

**Кодиров Азизжон Анварович**

доктор экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Хидирова Гавхар Рустамовна**

доктор экономических наук, доцент

**Худайберганов Дишипод Тухтабаевич**

доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский государственный университет**

**имени Шарофа Раширова**

Заплита диссертации состоится “23” август 2025 года в 14:00 часов на заседании

Разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.72.05 при Бухарском государственном университете (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икболов, дом 11. Тел.: (998-65) 221-29-14; факс: (998-65) 221-27-07; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 704), (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икболов, дом 11. Тел: (99865) 221-25-87)

Автореферат диссертации разослан «13» август 2025 года

(Протокол-реестр рассылки № 26 от «21» июня 2025 года)



**О.Х. Хамидов**

Председатель разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Д.Ш. Явмутов**

Секретарь разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Б.Н. Навруз-Зода**

Председатель разового научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях обострения глобальной конкуренции развитие сферы услуг становится одним из важных условий обеспечения устойчивого экономического роста. Одним из стабильно растущих секторов сферы услуг является туризм, на долю которого приходится 13% сектора услуг. По данным ЮНВТО, в 2024 году в мире было зафиксировано более 1,3 млрд международных туристических поездок, и эти показатели требуют развития секторов, связанных с туризмом. Известно, что в 2024 году по сравнению с предыдущим периодом объем реализации продукции национальных ремесленников увеличился на 27%, что расширяет возможности развития сферы услуг за счет диверсификации в этой сфере<sup>26</sup>. Это свидетельствует об актуальности расширения объемов производства и реализации продукции народных ремесел в нашей стране за счет диверсификации и создания соответствующей инфраструктуры на основе цифровых технологий.

В настоящее время в мире ведутся масштабные научные исследования, направленные на выявление особенностей диверсификации и развития отечественной ремесленной продукции, современных тенденций, изучение организационно-экономических условий, обеспечение инновационного развития отрасли и повышение ее инвестиционной привлекательности, ориентацию на потребительские усилия на рынке услуг. Среди проводимых научных исследований приоритетными направлениями являются научные исследования по выявлению организационно-экономических секторов национального рынка ремесленной продукции, оценке уровня ремесленной продукции в местах посещения отечественными и зарубежными туристами, совершенствованию механизма создания цепочки добавленной стоимости как средства обеспечения конкурентоспособности национальной ремесленной продукции.

В условиях реализуемых в новом Узбекистане реформ реализуются комплексные меры по ускоренному развитию сферы услуг, ее всесторонней поддержке, расширению возможностей регионов в этой сфере, диверсификации продукции национальных ремесленников и приведению ее качества в соответствие с мировыми стандартами. «Следует отметить, что сфера услуг является одной из относительно быстро развивающихся отраслей экономики, а потому вносит существенный вклад в формирование ВВП страны и доходов населения. По оценкам Международной организации труда, дополнительный 1 процент роста в сфере услуг может снизить уровень бедности на 1,5 процента»<sup>27</sup>. Целесообразно расширить тематику научных исследований по таким направлениям, как устойчивое развитие эффективности сферы бытового обслуживания на основе современных требований, диверсификация продукции национальных ремесел, повышение качества и эффективности услуг на основе инновационных подходов, разработка эффективных механизмов организации сервисной деятельности.

